



The problem of the relationship of litotes to related phenomena and their reflection in proverbs

Khurshida KADIROVA¹, Odina URALOVA²

Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

ARTICLE INFO

Article history:

Received October 2025

Received in revised form

15 October 2025

Accepted 15 November 2025

Available online

05 Desember 2025

Keywords:

litotes,
meiosis,
antenatiosis,
euphemistic litotes,
metaphorical litotes,
synecdochic litotes.

ABSTRACT

This article examines the relationship between the figurative device of litotes and related phenomena. References to scholarly works are provided and commentary is provided. It is proven that litotes, often found in oral speech, is also found in proverbs. It is argued that this phenomenon is related to hyperbole, meiosis, and antenatiosis. It is also determined that litotes has a euphemistic, metaphorical, and synecdochic nature. The study, based on the opinions of scholars, described the boundaries of these phenomena, identifying their general and specific aspects. Descriptive, classificatory, comparative, and contrastive methods were used in the study. Scientific sources were consulted. The subject of the study is proverbs, and the task is to examine the relationship between litotes and related phenomena based on the proverbs in which they appear. The scientific conclusions are consistent with the results obtained and are presented in the table. Since the role of litotes in proverbs has not been studied in a monographic context, the article is of current importance.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss6-pp7-14>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Doctor of Philosophy (DSc), Associate Professor, Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi. E-mail: qodirova@navoiy-uni.uz

² Master degree student, Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi. E-mail: gayratbest@mail.uz

Litotaning yondosh hodasalarga munosabati masalasi va ularning maqollarda namoyon bo'lishi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

litota,
meyozis,
antenatiozis,
evfemik-litota,
metaforik-litota,
sinekdoxik litota.

Mazkur maqolada litola tasviriy vositasining yondosh hodisalarga munosabati ko'rib chiqilgan. Ilmiy ishlarga murojaat qilingan, ularga munosabat bildirilgan. Og'zaki nutqda ko'p uchraydigan litotalarning maqollarda ham uchrashi isbotlangan. U giperbola, meyozis, antenatiozis bilan yondosh hodisa ekanligi bayon etilgan. Shunindek, litotalar evfemik, metaforik va sinekdoxik tabiatli bo'lishi aniqlangan. Tadqiqot davomida mazkur hodisalarning chegarasi olimlarning fikri asosida tavsiflangan, umumiy va xususiy jihatlari aniqlangan. Tadqiqotda tavsifiy, tasnifiy, qiyosiy va chog'ishtirma usullardan foydalanilgan. Ilmiy manbalarga yondashilgan. Tadqiqotning predmeti – maqollar bo'lib, vazifasi: litotalarning yondosh hodisalarga munosabati ular ishtirok etgan maqollar yordamida asoslangan. Ilmiy xulosalar olingan natijalarga mos va u jadval bilan ko'rsatib berilgan. Litotalarning maqollardagi o'rni monografik planda o'rganilmaganligini sababli, maqola aktual ahamiyatga ega.

Проблема отношения литот к смежным явлениям и их отражения в пословицах

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

литота,
мейозис,
антенатиозис,
эвфемическая-литота,
метафорическая-литота,
сinekдохическая литота.

В данной статье рассматривается взаимосвязь образного приема литот и смежных с ней явлений. Приводятся ссылки на научные работы и комментируется. Доказано, что часто встречающаяся в устной речи литота, встречается и в пословицах. Утверждается, что это родственное явление с гиперболой, мейозом и антенатиозом. Также определяется, что литота носит эвфемистический, метафорический и синекдохический характер. В ходе исследования на основе мнений ученых были описаны границы этих явлений, выявлены их общие и частные аспекты. В исследовании использовались описательный, классификационный, сравнительный и сопоставительный методы. Были обращены к научным источникам. Предметом исследования являются пословицы, а задача: взаимосвязь литоты и смежных явлений – на основе пословиц, в которых они участвуют. Научные выводы согласуются с полученными результатами и представлены в таблице. Поскольку роль литоты в пословицах в монографическом плане не изучалась, статья имеет актуальное значение.

KIRISH

“Litota” atamasi yunoncha “kichiklik” yoki “me’yoriylik” tushunchasidan kelib chiqqan bo’lib, adabiy asarlardagi gaplar, iboralar va shunga o’xshash narsalarni yumshatish uchun ishlatilgani bois turli tasviriy yoki nutqiy ifodalar bilan almashtirib yuborish holatlari kuzatiladi. Ayniqsa uning evfemik, metaforik, sinekdoxik tabiatli ekanligi ko’p ilmiy tadqiqotlarda ta’kidlanadi. Aslini olganda esa, har qanday tasviriy ifoda agar u yumshatishga, muayyan belgini kichraytirishga xizmat qilsa, litotik tabiatli deb qaralishga loyiq. Faqat uning yumshatishga qaratilgani evfema bilan, o’xshatishga qaratilgani metafora bilan, butunni qism bilan atashga qaratilgani esa sinekdoxa bilan chalkashtirib yuborilishiga olib keladi. Shu boisdan ularning chegarasini belgilash, yondosh hodisalar sirasidagi o’rnini aniqlash fanimiz oldidagi dolzarb vazifalardandir.

MATERIALLAR VA TADQIQOT USULLARI

Ishda tahliliy, qiyosiy-tipologik, tavsifiy va tasnifiy tadqiqot metodlaridan foydalaniladi. Ishning tadqiqot obyekti sifatida maqollar olindi. Maqollar boy madaniy mazmunni o’z ichiga olib, ular nafaqat millatning ishlab chiqarish tajribasi va turmush darajasini, balki millat psixologiyasi, qadriyatlari va fikrlarining xulosasini, shuningdek, millatning tarixiy shaxslari, voqealari, afsonalari va urf-odatlarini ham o’zida jamlaydi. O. Xojiyeva o’z maqolasida o’rganilayotdan tillardagi maqollarda “parallelizmlar, tazod, talmeh, alliteratsiya, laff va nashr, istiora, sa’j kabi badiiy san’atlar har ikki xalq folkloridagi maqollarni bezaydi [1], deydi. Bu ro’yxatda ham **litota** tilga olinmaganligini ko’rishimiz mumkin. Vaholanki, badiiy nutqning ta’sirchanligini oshiruvchi muhim vositalardan biri bu – litotadir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

V.K. Xarchenko so’zlashuv nutqini tirik, qiziqarli va doimiy ravishda o’zgarib turadigan jarayon ekanligini va ko’pincha unda litotalar kutilmaganda yuzaga chiqishini, “bu jihatlar adabiy nutqda biroz kamroq uchrashini, ammo so’zlashuv nutqida ular turlicha hamda keng ko’lamda namoyon bo’l” [2] ishini ta’kidlaydi va uning turli tabiatli ekanligini tahlil qiladi. Ulardan biri evfemik-litotalardir. Muallifning fikricha kommunikativ nutq jarayonidagi “bir guruh litotalar evfemik tabiatlilaridir. Ularning aksariyati ikki tomonlama inkor tamoyiliga muvofiq qurilganligi aytiladi: *Неплохие деньги берут!* [Maoshi yomon emas!]” [3]. Bunda *yomon (плохие)* so’ziga *не* (emas) inkor shakli qo’shib “yaxshi” ma’nosini kichraytirib, “yomon” belgisini kamaytirib, ifoda planini kuchaytirib, nutq vaziyatida stilistik me’yoriylik tabiatini muayyan darajada “berkitib”, evfemik tus namoyon bo’lmoqda. Modomiki bu kabi uslubiy jarayon so’zlashuv nutqiga xos ekan, maqollarda, ularning ham so’zlashuv, ham adabiy nutq birligi – xalq og’zaki ijodi bo’lganligidan mazkur vositalarning hamohang aks etishi kam uchraydi. Biroq inkor shakllari yordamida evfemik tabiatli litota qo’llanilgan maqollar ham yo’q emas. Masalan,

Baxilning yerida sunbul ko’karmas;

Beli og’rimagan bel bo’lmas, birovning xizmatin bilmas;

G’ayratsiz bilak – o’rinsiz tilak.

Biroq shuni aytish joizki, bu maqollarda litota ustivorlik qilmaydi, ammo muayyan darajada litotik usul mavjud. Buni quyodagi maqol orqali asoslash mumkin: *Бекорчилик – бемазачилик*. *Maza* – ta’m, taomning sifati. Inkor shakli → *bemaza, beta’m*. Bunda taomning yoqimsiz mazasi natijasida kishining ta’bini xira qilgandagi holatga ishora qilinib, o’xshatish asosida ma’no ko’chgan. Insonga nisbatan qo’llangan metafora, bemaza taom singari kishining ko’nglini qoldiradigan odam uchun evfemik xususiyatli, ya’ni

“yomon odam”ga nisbatan yumshoqroq ifoda. Endi uning litotik tabiatini uning “tasvirlanayotgan hodisaning kuchini, kattaligini yoki ahamiyatini kamaytirishdan iborat majoziy ifoda” [4] ekanligi bilan izohlash mumkin. Shu o’rinda ushbu so’z uch tomondan uch xil tabiatli ekanligiga guvoh bo’lamiz. Birinchi navbatda, **evfemizm** – uning kommunikativ vaziyatdagi qo’pol ifodani yumshatish vazifasini bajaruvchi ekanligi; ikkinchi o’rinda, **metafora** – o’xshatish asnosida ma’no ko’chish vazivasini bajaruvchi ekanligi; uchinchi o’rinda, **litota** – belgining ko’lamini, mavqeini kamaytiruvchi, kishi sifatini narsa buyum sifati darajasiga tushirish vasifasini bajaruvchi ekanligi namoyon bo’lmoqda. Bunga V.V.Gurevichning “litotalar (kuchsiz ifodalash; kamaytirish, kichraytirish) – bu salbiy konstruksiyalarni ijobiy ma’noda qo’llanishga asoslangan stilistik vosita bo’lib, tasvirlangan sifat zaiflashadi, lekin aslida bu sifat juda ijobiy yoki kuchliroq narsa sifatida ta’riflanadi” degan fikri asos bo’la oladi.

Litotalarning metaforik asosli bo’lishi haqida adabiyotlarda qayd etiladi. Biroq “ular asosan “miqdor” otlariga nisbatan qo’llaniladi deyiladi: *капелька* (tomchi), *каплюшка* (tomchicha), *грамулька* (gramcha), *секундочка* (daqiqacha), *копейка* (tiyinch), bu ma’lum bir nomuvofiqlik effektini yaratadi, ammo kamaytirilgan belginining o’zi litotik tabiatli ekanligini ko’rsatadi. *Пробуйте! Вот этот плотней, вот этот **капельку** мягче. А этот суше!*” [Sinab ko’ring! Bu zichroq, bu biroz (bir tomchi) yumshoqroq. Bu esa quruqroq!].

Umuman olganda, rus tili uchun bu kabi kichraytirib ifoda etish xos bo’lib, *сув* (водичка), *tomchi* (капелька) sozlariga nisbatan kichraytirish shakllarini qo’shish me’yoriy ekanligini ta’kidlash joiz. Shuning uchun tarjima jarayonida *капелька* so’zi *biroz* deb tarjima qilindi, chunki o’zbekchada uning muqobili yo’q. Biroq “rus lingvistik tafakkuri doimo mubolag’a (giperbola) va keskinlikni talab qiladi. Shuning ushun litotalar kam uchraydi. Hattoki ruslarda: “Bizning sharoitimizda mubolag’a bizni qutqaradi...” [5] qabilidagi yondashuv ham mavjud [6]. O’zbek tilida quyidagi maqol bunga misol bo’la oladi: *Sholining bahonasida kurmak сув ichar*. Bunda insonlarga nisbatan litotik metafora yuzaga chiqqan.

Litota giperbola bilan almashtirib yuborilishida ham asos bor. Unda haqiqatni kichraytirish orqali ma’no kuchayishi holati kuzatiladi: *Erinchoqning qo’li qisqa, erinmaganning – yo’li*. U litotaning aksi sifatida ham qo’llanilishi adabiyotlarda ko’p bora ta’kidlanar ekan, giperbolani ham uning yondosh hodisalari sifatida tahlil qilishimiz zarur. “Giperbola va litotalar umumiy bir xil vazifani bajarish xususiyatiga ega – voqea-hodisa, belgi yoki predmetni noxolis bahosini berish, me’yordan tashqariga chiqish, va shuning uchun ularni nutqda almashtirish mumkin” [7]. Biroq ularning chegarasi “+” va “–” qutblarni egallashi bilan belgilanadi. Demak, giperbola (mubolag’a) obyektning sifatlarini ataylab haddan tashqari bo’rttirishni anglatadi. Biroq bu ham lingvokulturologik, milliy mental, tipologik jihatdan turli tillarda turlicha anglanishi, ijtimoiy nuqtai nazardan tafakkur doirasining keng yoki torligi bilan litota yoki giperbola hodisasi ekanligi aniqlanadi. U kognitiv xususiyatga ega. Masalan,

Poraxo’rning qo’li to’rtta, ko’zi – beshta;

Besh panjangni og’zingga tiqma;

Boyning o’g’li kelsa – to’rga, kambag’alning o’g’li – go’rga.

Bu maqollarning mental xususiyatga egaligini quyidagi maqol tahlili orqali asoslash mumkin: *O’zi bir tanga, to’ni qirq tanga*. O’zbek milliy sharoitida “kamtarlik”, “kamsuqumlikka” ijobiy sifat berilib, qirq tangalik, ya’ni egasining kishilar tomonidan

berilgan bahosiga nisbatan arzimaydigan, qimmat kiyim kiyish bilan kibrlanib yurish bizning til muhitimizda disfemik kayfiyat uyg'otadi va "qirq tanga" birligi vaziyatni bo'rttirish vazifasini bajaradi.

Chog'ishtirma tilshunoslikda uning til xususiyatlariga ko'ra ishlatilish darajasi ham ilmiy xulosalarda aks etgan. Masalan, favquloddagi nutqda litotaning ham qat'iy belgilangan qo'llanish usuli yo'q. Bu qisman tipologik xususiyat va qo'pollik yoki yumshoqlikka moyil bo'lgan milliy mentalitetning o'ziga xos xususiyatlari bilan izohlanadi [8]. Bunday kognitiv mubolag'ali birliklari bor maqollarga quyidagilarni misol qilish mumkin:

O'nni ko'r, birni ol;

Yuz so'm puling bo'lguncha, yuzta do'sting bo'lsin;

O'tga borganning o'ttiz og'iz gapi bor;

Yaxshi do'st yuz qarindoshdan yaxshi.

"Ko'pincha giperbola va litotalar turli ko'chim shakllarini oladi va ular har doim kinoya bilan birga keladi, chunki muallif ham, o'quvchi ham bu majoziy vositalar haqiqatni aniq aks ettirmasligini tushunishadi" [9]. Bu vaziyatda yuqoridagi misollarni majoziy manoda mubolag'a qilishga qaratilgan harakat deb tushunish mumkin.

Litotaning yana bir yondosh hodisasi bu – meyozisdir. V.K. Xarchenko "litota" atamasini uch ma'noda ham (aslida litotlar, meyozis va yumshatuvchi ko'chim – antenantiozis sifatida) ishlatishni ma'qul ko'radi. Meyozis va antenantiozisni litotalarning turlari deb hisoblaydi [10]. Darhaqiqat, manbalarda meyozisga nisbatan "giperbolaning aksi bo'lgan litota [to'g'riroq nomi meyozis (yunoncha μέωσις – pasayish)], biror xususiyatni ataylab kamsitish demakdir. U nutqning ifodaliligini oshirishga xizmat qiladi va turli uslub va janrlarda uchraydi" [11] deb ta'rif beriladi va litotalarning ta'rifidagi misollar keltiriladi. Biroq O.N. Laguta o'zining "Stilistik atamalar o'quv lug'ati"[12]da "litota" va "meyozis"ning chegarasini belgilaydi:

Litota [1], -lar. Leksik stilistikada: perifrazaning bir turi, tushunchani uning ziddini inkor etish orqali ta'riflashdan iborat ataylab zaiflashtirilgan ifoda. *Верь: я внимал не без участия* (Н. Некрасов). [Ishoning: men ko'ngilsiz tinglamadim]. *Небесполезный* [Foydasiz emas]. *Небезынтересный*. [E'tiborsiz emas].

Litota [2], -lar. Trop. Ayn. Meyozis.

Meyozis, -lar. Leksik stilistikada: kamaytirish ma'nosidagi qo'llanadigan ifoda, odatda majoziy ma'noda ifodalanadi, shundagina ko'chim sifatida qaraladi. *Ваш шниц, прелестный шниц, не более наперстка* (А. Грибоедов) [13]. [Sizning shpitsingiz, ajoyib shpits*, angishvonadan katta emas].

Ko'rinadiki, meyozosda obrazlilik ustivorlik qiladi. Litotalar esa yuqorida aytilganidek ko'proq miqdoran kamaytirishga asoslangan uslubiy vosita. Masalan,

Tomchi sel bo'lmas, dushman el bo'lmas;

Yurgan daryo, o'tirgan bo'yra;

Baxtingga ishonma, barmog'ingga ishon.

Bunda "tomchi", "bo'yra", "barmoq" so'zlari – litotik; "sel", "daryo" so'zlari mubolag'ali ko'chim deb tushunish mumkin. Ko'chimning sinekdoxik tabiati mazkur maqollarda ko'rinib turibdi. Umuman olganda agar belgi miqdorga asoslansa – butun qism munosabati bor bo'lsa sinekdoxaga moyillik kuchayadi. Biroq litota aralashadigan bo'lsa ko'proq qism bilan, giperbola bilan hamohang bo'lsa butun bilan atalishi mantiqan to'g'ri bo'ladi:

* **Shpits** – tik quloqli, orqasigacha o'ralgan dumi va qalin ikki qavatli juni bor o'ziga xos xususiyatlarga ega it zotlari guruhining umumiy nomi.

*Yalqov bo'lsa o'g'loning, yerdan non termas,
Abjir bo'lsa o'g'loning, cho'ldan don terar;
Eshitmas quloq elni buzar;
Toledan karam tilama, gadodan diram tilama.*

Shu o'rinda litotaning yondosh hodisasi sifatida antenatiozisga ham to'xtalish joiz. Antenatiozis yunoncha so'z bo'lib – bir tushunchani uning ziddini bildirish uchun inkor etishga qaratilgan ritorik shakl, masalan, “bu yomon” o'rniga “bu yaxshi emas” [14]. Bu ta'rif O.N. Lagutaning **Litotaga** bergan ta'rifiga juda o'xshaydi. Biroq bu termin boshqa hech qanday manbada uchramaydi. Mavjud ma'lumotdan antenatiozis faqat shaklan, jumladan, bo'lishsizlik, inkor shakllari orqali tushunchaga zid ma'no yuklash vazifasini bajaruvchi vosita sifatida qabul qilish mumkin. Masalan,

Yomonga yondashgan yiqlmay qolmas, oxiri bir chuqurga tiqlmay qolmas.

Bunda inkorni inkor etish usuli orqali muayyan tushunchani tasdiqlash holati kuzatiladi. *yiqlmay qolmas, ya'ni yiqladi; tiqlmay qolmas, ya'ni tiqladi.*

XULOSA

Yuqoridagilardan kelib chiqib litota ham meyozis, ham antenatiozis tabiatli bo'lishi mumkin degan xulasa chiqaramiz. Faqat ularning vazifalari farqli. Litota har ikkalasini o'zida mujassamlashtirivchi stilistik vosita.

Demak,

- litotalar ko'proq og'zaki nutqda uchraydigan vosita;
- maqollar ham xalq og'zaki ijodi namunalari ekanligini hisobga oladigan bo'lsak maqollarda ham litotalarning o'rni tadqiq etish kun tartibidagi masalalardan biridir;
- ular obyektga xos bo'lmagan xususiyatni inkor etish, inkorni inkor etish (antenatiozislik) xususiyatiga ega: *chorasiz emas*;
- mavjud xususiyatni obrazli kamaytirish (meyozislik) vazifasini bajaradi: *chidasa bo'ladi, chidamli ob-havo. Ishlar qalay? Bo'ladi?*;
- litotalar metafora asosida ham yuzaga kelishi mumkin: rus tilida *шевелиться, утюгом повозиться, ползать* kabi birliklar «действовать», «гладить», «ходить» ma'nosida ifoda etiladi [15], masalan, *Qimirlagan qir oshar, tig'izlagan tog' oshar*;
- litotalar sinekdoxik tabiatli bo'lishi ham mumkin: *Tovoq kelganda, saboqni qo'y*. U o'zbek maqollartida eng keng tarqalgan vosita sanaladi.

h) kommunikativ vaziyatda “soddalik, kichiklik, mo'tadillik” berish maqsadida evfemik tabiatli bo'lish xususiyatiga ega: *Ko'ngilsiz gapning kechikkani yaxshi*.

Litotalarning yondosh hodisalariga berilgan ta'riflarni mutlaq deb bo'lmaydi. Ishlatilish doirasi, ko'lami, chegarasi, o'rni va maqsadiga ko'ra ular farqlanishi, almashtirib yuborilishi, bir vaziyatda bir nechta ishtirok etishi mumkin. Quyida ularning chegarasini jadval orqali aks ettirish mumkin:

Vositalar \ Vazifalari	Zidlik	Yumshatish	Miqdorni kamaytirish	Ko'chma ma'no berish
Litota	+	+	+	+
Giperbola	+	-	-	+
Meyozis	0	+	0	+
Antenatiozis	+	+	0	-
Evfemik-litota	0	+	0	+
Metaforik litota	0	+	0	+
Sinekdoxik litota	-	0	0	+

Bundan xulosa qilinadiki, eng ko'p "+" belgisiga ega vosita litota hisoblanib, keyingi satrlarda kelgan vositalar litota bilan birga kelish xususiyatiga ega. Hattoki, giperbola ham tushunchani o'ta kichraytirish maqsadida ishlatilgan birlikda bo'rttirish, mubolag'a qilish uchun ishtirok etadi. Shu ma'noda litota o'z yondosh hodisalaridan ustivorlik qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Xojiyeva O. O'zbek-turk maqollarining klassifikatsiyasi. // XI Beynəlxalq Türk Dünyası Araştırmaları Simpoziumu 11-13 İyun 2024 / Bakı.
2. Харченко В. К. Литота в речевом жанре бытового разговора // Жанры речи. 2019. №4 (24). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/litota-v-rechevom-zhanre-bytovogo-razgovora> (дата обращения: 13.11.2025).
3. Харченко В. К. Литота в речевом жанре бытового разговора // Жанры речи. 2019. №4 (24). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/litota-v-rechevom-zhanre-bytovogo-razgovora> (дата обращения: 13.11.2025).
4. Харченко В. К. Литота в речевом жанре бытового разговора // Жанры речи. 2019. №4 (24). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/litota-v-rechevom-zhanre-bytovogo-razgovora> (дата обращения: 13.11.2025).
5. Ласкин А. Высокий и Толстой: Повесть // Нева. 2012. № 8. С. 76–121.
6. Харченко В. К. Литота в речевом жанре бытового разговора // Жанры речи. 2019. №4 (24). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/litota-v-rechevom-zhanre-bytovogo-razgovora> (дата обращения: 13.11.2025)
7. Голуб И.Б. Стилистика русского языка – М., 1997 г. https://kamgift.kamch.muzkult.ru/media/2020/04/23/1255624376/Zanyatie_6._Giperbola_i_litota.pdf
8. Лотман Ю. М. Культура и взрыв. М.: Гнозис; Прогресс, 1992. 272 с.
9. <https://studfile.net/preview/1732076/page:9/>
10. Харченко В. К. Литота в речевом жанре бытового разговора // Жанры речи. 2019. №4 (24). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/litota-v-rechevom-zhanre-bytovogo-razgovora> (дата обращения: 13.11.2025).
11. <https://old.bigenc.ru/linguistics/text/2147913>
12. Лагута О.Н. Учебный словарь лингвистических терминов. Часть 1. Учебно-методическое пособие / Отв. ред. Н.А. Лукьянова. Новосибирск: Новосибирский госуниверситет, 1999. – 71 с.
13. Лагута О.Н. Учебный словарь лингвистических терминов. Часть 1. Учебно-методическое пособие / Отв. ред. Н.А. Лукьянова. Новосибирск: Новосибирский госуниверситет, 1999. – С. 31.
14. <https://broukgauzepron.slovaronline.com/5151-ANTENANTIOZ>
15. Харченко В. К. Литота в речевом жанре бытового разговора // Жанры речи. 2019. №4 (24). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/litota-v-rechevom-zhanre-bytovogo-razgovora> (дата обращения: 13.11.2025).
16. Məmmədov, X., & Kadirova, X. (2024). X(iks)-femik xarakterli özbək və azərbaycan atalar sözlərinin tipoloji xüsusiyyətləri. *O'zbek tilining xorijda o'qitilishi: ta'lim nazariyasi va amaliyoti*, 1(01), 39–44. Retrieved from <https://aphil.tsuull.uz/index.php/anjuman/article/view/95>

17. Кадирова, Х., & Мəммədov, Х. (2025). “Gözəllik” komponentlari ilə paremioloji birliklərin iks-femik semantikasi. *Uzbekistan Language and Culture*, 1(1). Retrieved from <https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/131>
18. Кадирова, Х., & Uralova, O. (2025). Turkiy va turk xalq maqollarining lingvistik tadqiqi. *Uzbekistan Language and Culture*, 1(1). Retrieved from <https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/132>